

Turkmaniston Prezidentining O'zbekistonga tashrifiga doir



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning taklifiga binoan Turkmaniston Prezidenti Gurbanguli Berdimuhamedov 2015-yil 7-8-oktabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ladi.

Oliy darajadagi uchrashuvlar chog'ida O'zbekiston va Turkmanistonning siyosiy, savdo-iqtisodiy, transport va kommunikatsiyalar, madaniy-gumanitar va boshqa sohalardagi hamkorligining bugungi holati va uni yanada rivojlantirish istiqbollarini muhokama qilish, dolzarb mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashish rejalashtirilgan.

Tashrif yakunlari bo'yicha ikki davlat rahbarlarining Qo'shma bayonotini qabul qilish, iqtisodiyot, transport, bojxona, turizm, fan-texnika, sog'liqni saqlash va sport sohalaridagi o'zaro manfaatli aloqalarni izchil rivojlantirishga doir qator hujjatlar imzolanishi mo'ljallangan.

[O'ZA](#)